UO‘K 373.2

MILLIY O‘YINLAR VOSITASIDA TARBIYALANUVCHILARDA DO‘STONA MUNOSABATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

I.X. Quronova

Maqolada milliy o‘yinlarning turlari, qoidalari, olib borish tartibi tahlil qilingan. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida o‘yinni tashkil etishdan ko‘zlanadigan maqsadlar va milliy o‘yinlar vositasida bolalarda do‘stlik tuyg‘ularini shakllantirish usullari haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: *milliy o‘yinlar, do‘stlik o‘rtoqlik, “Ilk qadam” o‘quv dasturi, “Yarashtirgich”, “Sanamalar”*.

В статье проанализированы виды, правила и порядок проведения национальных игр. Высказана мысль о целях организации игр в дошкольных образовательных организациях и методах формирования чувства дружбы у детей посредством национальных игр.

Ключевые слова: *национальные игры, дружба, образовательная программа “Первый шаг”, “Примиритель”, “Считалочки”.*

Milliy o‘yinlar asosan harakatli o‘yinlardan tashkil topgan bo‘lib, ko‘p hollarda “milliy harakatli o‘yinlar” deb yuritiladi. Milliy harakatli o‘yinlar bilan qadimdan yosh-u qari birdek shug‘ullanib kelgan. Bolalar faoliyati asosini milliy o‘yinlar tashkil etgan bo‘lsa, kattalar xalq sayillarida insonga zavq bag‘ishlovchi turli o‘yinlar bilan davrani qizdirishgan. Albatta, bugungi yuksak texnologiyalar zamonida ham bahor bayramlarini milliy o‘yin-kulgularisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Chunki bunday milliy o‘yinlar kattalarning, avvalo, bolalarcha zavqlanishi va ko‘ngil g‘uborlaridan forig‘ bo‘lishiga, hayot tashvishlaridan biroz chalg‘ishiga, do‘stlar bilan diydorlashishiga sabab bo‘ladi, xullas, chinakam bayram ruhini his qilishiga yordam beradi.

Mutaxassislar maktabgacha ta’lim muassasalarida xalq milliy o‘yinlarini tashkil etishda quyidagi vazifalarni amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydilar:

• xalq milliy o‘yinlarining turlari va ularni tashkil etish yo‘llari, usullari hamda uslublarini ishlab chiqish;

• milliy o‘yinlarni tashkil etishda ma’naviy qadriyatlar va urf-odatlarimizni kundalik hayot jarayoniga singdirib borish;

• maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashda xalq milliy o‘yinlaridan maqsadli foydalanish;

• xalq ertaklari, xalq og‘zaki ijodi durdonalaridan unumli foydalanish;

• bolalarning o‘ynashlari uchun shart-sharoit (o‘yin uchun jihozlar, atributlar) yaratish;

• maktabgacha ta’lim muassasalari, oila va mahallalar o‘rtasida milliy o‘yinlar bo‘yicha ko‘rik tanlovlari va musobaqalar o‘tkazish.

Milliy harakatli o‘yinlar bolalarning yosh xususiyatlariga, o‘yindagi harakatlar rivojiga qarab takomillashib boradi” [1. B. 68].

Maktabgacha ta’lim muassasalarining asosiy hujjati hisoblangan “Ilk qadam” o‘quv dasturi 2-bobining 2-bo‘limida “Bolalarning o‘z milliy madaniyati, tili, an’analarini hurmat bilan e’tirof etilganda, ular yaxshiroq ta’lim oladilar va rivojlanadilar. Davlat o‘quv dasturi milliy va mintaqaviy madaniy xususiyatlarni hisobga olgan holda tuziladi” [2. B. 13] deya tarbiyada milliylikning ahamiyatiga alohida urg‘u berib o‘tilgan.

O‘zbek xalqining milliy bolalar o‘yinlaridan misol tariqasida “Quvlashmachoq”,

“Berkinmachoq”, “To‘ptosh”, “Arqon tortish”, “Chillak”, “Mushuk va sichqon”, “Aliga tashlang, Valiga tashlang”, “Oq terakmi, ko‘k terak?” kabi harakatli o‘yinlarni sanab o‘tish mumkin. Bu kabi o‘yinlarning, variantlarining sanog‘i yo‘q. O‘zbekistonda yashovchi har bir millatning, viloyatning o‘z milliy o‘yinlari mavjud.

Milliy harakatli o‘yinlar asosan jamoa bo‘lib o‘ynalgani uchun bolalarda serharakatlik, chaqqonlik, ehtiyotkorlik, jamoadoshlarga o‘zaro hurmatda bo‘lish, o‘z xatti-harakatlarini boshqara olish, kuzatuvchanlik kabi sifatlarni shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Shular bilan bir qatorda milliy o‘yinlar bolalarda bog‘cha yoshidan boshlab muhim insoniy sifatlardan biri – do‘stlik, o‘rtoqlik tuyg‘ularini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Avvalo, do‘stlik tuyg‘usining ahamiyatiga biroz to‘xtalib o‘tsak. Do‘stlik, o‘rtoqlik tuyg‘ulari bolalarni o‘zlari kirib borayotgan yangi jamoada o‘rin topishida muhim vosita hisoblanadi. Do‘stlik deganda, avvalo, ikki yoki undan ortiq bolalarning bir-biriga bo‘lgan o‘zaro ishonchi, hurmati, beg‘ubor mehri tushuniladi. Bolalar hayotida do‘stlik muhim ahamiyatga ega, chunki yangi jamoaga qadam qo‘ygan har bir bola aynan do‘stlik tuyg‘usi orqali boshqalar bilan munosabat o‘rnatadi. Chinakam do‘stlik tuyg‘usi asosiga qurilgan munosabat ko‘p yillar davom etishi, katta yoshda ham to‘xtamasligi mumkin. Bolalarda avvalo o‘rtoqlik yuzaga keladi va sekin-asta ular o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, hurmat tuyg‘ulari mustahkamlanib do‘stlikka aylanadi. Bolalikdan o‘rnatilgan do‘stlik katta bo‘lganda yuzaga kelgan do‘stlikdan ko‘ra qadrli va mustahkam bo‘ladi. Chunki bolalikdagi do‘stlik hech qanday manfaatlarsiz bo‘ladi va faqatgina birgalikdagi o‘yin-kulguga asoslanadi. Hayotining eng beg‘ubor damlarini birgalikda o‘tkazgan, xursandchiligini birga baham ko‘rib katta bo‘lgan do‘stlar bir-birlarini qadrlashadi, har qanday yoshda ham doim aloqada bo‘lib turishadi.

Milliy o‘yinlarning bolalar o‘rtasida do‘stlik tuyg‘ulari shakllanishida qaydarajada ahamiyat kasb etishini shundan ham bilsa bo‘ladiki, milliy harakatli o‘yinlarning deyarli hammasi jamoaviy tarzda olib boriladi. Jamoaviy o‘yinda esa albatta ikki yoki undan ortiq bola ishtirok etadi. Bu tarzda tashkil etiladigan o‘yinlar ishtirokchi bolalar o‘rtasida do‘stona munosabatlarni shakllantirish uchun qulay muhit yaratib beradi. Ko‘pchilik ishtirokidagi o‘yin qiziqarli va maroqli kechadi. Bolalar o‘yin jarayonida bir-birlari bilan o‘zaro kelishib, bir-birining fikrlarini hurmat qilib, bir-birini qo‘llab, ehtiyot qilib harakat qilishadi. O‘yin amaliyotidagi bunday munosabat qayta-qayta takrorlanishi natijasida bola fe’l-atvoridagi muqim xususiyatga aylanib boradi. Demak, o‘yin faoliyatida shakllangan xarakter xususiyati endi hayot faoliyatining boshqa sohalariga ham tatbiq etilaveradi.

Bola bog‘chaga ilk qadam qo‘yishi bilanoq birdaniga tengdoshlariga qo‘shilib keta olmaydi. Uning bog‘cha muhitiga birdan kirishib ketishiga quyidagi holatlar to‘sqinlik qiladi:

– yangi odamlar orasida o‘zini noqulay his qilishi;

– bolalar ichida begonasirashi va muloqotga kirishib keta olmasligi;

– kun tartibiga amal qilish talabi (uyda bo‘lgan paytida istagan xatti-harakatini amalga oshirganligi va bu jarayon bog‘chada biroz cheklanishi) va boshqalar.

Bolalarning yuqorida keltirilgan kabi vaziyatlarda uzoq vaqt qolmasligini ta’minlashda bizga milliy o‘yinlar amaliy va samarali yordam beradi. Bu o‘yinlar bolalar uchun juda qiziqarli va jalb qiluvchi hisoblanadi. Ya’ni har qancha begonasiramasin, bola o‘yindan tashqarida qololmaydi – beixtiyor qo‘shilib ketadi, o‘yin esa o‘zining tarbiyaviy vazifasini bajarishga kirishadi.

Misol tariqasida azal-azaldan o‘ynab kelinadigan so‘z o‘yinlaridan “Yarashtirgich”lar hali-hanuzgacha bolalar orasida “tinchlik – yarashuv”ni amalga oshirish vositasi sifati-

da qo‘llanadi. Shunday “Yarashtirgich”lardan birida bolalar tomonidan mana bunday so‘zlar aytiladi:

Karimga berdim toychoq,
U olavermadi har choq.
Toychog‘imni kim olsa,
Men u bilan chin o‘rtoq.
Yalinchoq-yalinmachoq,
Pista po‘choq.
Qilichmi, to‘qmoq, qirq yilgacha o‘rtoq,
To‘qmoq, to‘qson yilgacha o‘rtoq [1. B. 70].

Yarashuv marosimining o‘yin shaklini olishi, o‘yinning esa marosim maqomiga ko‘tarilishi jiddiy pedagogik samara beradi. Zero, bola muhim ijtimoiy amal – yarashuvni o‘yin shaklida hech bir zo‘riqishsiz bajaradi, ayni paytda marosimga xos jiddiyatni ham his qiladi.

Bolalarning matematik tasavvurlarini o‘stirish va shu orqali ular o‘rtasida do‘stlik uyg‘otishga yordam bera oladigan o‘yin sifatida “Sanamalar”ni ko‘rsatish mumkin. Bu o‘yin jarayonida bolalar she’riy satrlar orqali son-sanoqdan topishmoq tarzida foydalanib qatnashadilar. Bunda bolalarning tasavvurlari, fikrlash doiralari kengayib, she’riy ohangda to‘g‘ri javob qaytarishga o‘rgatib boriladi. O‘yinning navbat tartibida davom etishi, topishmoq tarzida kechishi sababli bolalar o‘zganing haqini (navbatni) anglay boshlaydi, unga xiyonat qilmaslikni o‘rganadi. Bu esa do‘stlik rishtalarining bog‘lanishi va bardavom bo‘lishida g‘oyat muhimdir. Shuningdek, ushbu o‘yin davomida ular bir-birlarini eshitish, diqqat bilan tinglashni o‘rganadilarki, bu ham do‘stona munosabatlarning mustahkam bo‘lishiga xizmat qiladigan xususiyatdir. Asosan, bu o‘yinlar quyidagicha jaranglaydi:

Dadam-u oyim,
Bor ikkita singlim.
Bahodir, Dildor,
Bog‘chaga ketar,
Sanab ko‘r chaqqon,
Bizlar nechta jon? [1. B. 70]

Keltirilgan she’riy satrlardagi ismlarni bolalar o‘zlari xohishiga qarab do‘stlarining ismlariga, yaxshi ko‘rgan o‘yinchoqlari nomlariga almashtirib, she’riy aytishuvni davom ettirishlari mumkin. She’riy ohangda do‘sti sifatida ismi tilga olingan bola xursand bo‘ladi, shunga loyiq ko‘rilgani uchun unda o‘ziga nisbatan ishonch, sanama aytuvchiga nisbatan esa mehr paydo bo‘ladi. Milliy o‘yinlar xalq og‘zaki ijodi namunalari bo‘lgani uchun, muayyan maqsadni ko‘zlab ularga biroz o‘zgartirishlar kiritish mumkin. Lekin o‘yin qoidasi o‘zgartirilmaydi.

Qadimdan milliy o‘yinlar ko‘p hollarda she’riy aytishuvlar tarzida o‘tkazilgan. O‘yin yanada qiziqarli kechishi uchun ishtirokchilar misralarga o‘yinga mos tarzda o‘zlari xohlagancha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin bo‘lgan. Yuqorida keltirilgan aytishuvga bolalar tiliga mos holda quyidagicha o‘zgartirish kiritish mumkin:

Men va Davron,
Nortoy-u Javlon,
Birga o‘ynaymiz
Zerikmay har on.
Sanab ko‘r chaqqon,
Bizlar nechta jon?

Aytishuvni o‘zgartirish jarayonida tarbiyachilar bolalarga yordam beradi, bunda har bir bolaning fikri inobatga olinadi. To‘g‘ri tanlangan o‘yin bolaning jismoniy, axloqiy, aqliy va badiiy-estetik tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. O‘yin bolani quvontiradi, unda atrofidagi tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabat hosil qiladi, birgalikda o‘ynash istagini uyg‘otadi, ezgu his-tuyg‘ularni tarkib toptiradi. Bolalarda ilk davrlardanoq milliylikka yo‘g‘rilgan o‘yinlar yordamida do‘stona munosabatlarni shakllantirish boshqa millatga mansub tengdoshlariga nisbatan ijobiy munosabatni tarbiyalashda ham ahamiyatli. Zero, hozirgi zamonaviy texnologiyalarga

asoslangan davrda boshqa davlatlar bilan do‘stlik munosabatlarini o‘rnatish, o‘zaro hamkorlik ishlarini olib borish mamlakat rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Buning isboti sifatida 2011-yilning 27-aprelida BMT Bosh Assambleyasi 30-iyulni “Xalqaro do‘stlik kuni” sifatida nishonlashni taklif etganini ko‘rsatish mumkin.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan quyidagicha xulosalarga kelamiz.

Milliy o‘yinlar bolalarda do‘stlik tuyg‘ularining shakllanishida asosiy omillardan bo‘lib, maktabgacha ta’lim tizimida ularning pedagogik imkoniyatlaridan samarali foydalahish maqsadga muvofiqdir.

O‘yin jarayonida bolalarda do‘stona munosabatlar hosil qilish tarbiya jarayoni samarali bo‘lishini ta’minlaydigan muhit yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda bolalarning ko‘p vaqtini band qilayotgan, ularning “do‘st”iga aylanib qolayotgan telefon va kompyuter o‘yinlaridan cheklagan holda, milliy o‘yinlar orqali ularga bilim berish, qator ijobiy sifatlarni shakllantirish imkoniyatini yo‘qotmaslik jamiyatimizning ertangi taraqqiyoti shartlaridandir.

Adabiyotlar:

1. *Hasanboyeva O.U., Tojiyeva M.X., Toshpo‘latova Sh.K*., *Pirmuhamedova M.M., Akbarova R.T*. va boshq. Maktabgacha ta’lim pedagogikasi. – Toshkent: Ilm ziyo, 2011. – 186 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tashkilotlari uchun “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi / Grosheva I.V., Mirziyoyeva Sh.Sh., Evstafyeva L.G., Mahmudova D.T va boshq. Takomillashtirilgan ikkinchi nashr. – Toshkent, 2022. – 102 b.

3. *Rahimqulov K*. Milliy harakatli o‘yinlar. – Toshkent: Tafakkur-bo‘stoni, 2012. – 146 b.

4. *Qurbonova M.A., Qosimova M.U.* Milliy harakatli o‘yinlar. O‘quv-uslubiy qo‘llanma. – Toshkent: O‘zDJTI nashriyot bo‘limi, 2009. – 66 b.

5. *Sodiqova Sh.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2013. – 288 b.

6. *Mirzayeva D.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2022. – 147 b.

7. *Kayumova N.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent, 2013. – 183 b.

8. *Qodirova F.R., Toshpo’latova Sh.Q., Kayumova N.M., A’zamova M.N.* Maktabgacha pedagogika. – Toshkent: Tafakkur, 2019. – 683 b.

9. *Usmanxodjayev T.S., X.Isroilov Sh., Pulatov A.A., Pulatov Sh.A*. Milliy va harakatli o‘yinlar. – Toshkent: Moliya-iqtisod, 2015. – 268 b.

10. *Usmanxodjayev T.S., Pulatov L.L.,.Tajibayev S.S, Pulatov F.A.* Milliy va harakatli o‘yinlar. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. – 330 b.

TECHNOLOGY OF FORMING FRIENDLY RELATIONSHIPS IN EDUCATORS THROUGH NATIONAL GAMES

I.X. Quronova[1]

Ilmiy xabarnoma. Seriya: Pedagogik tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Pedagogical Research. 2023. 6(74). 86-90.

[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

Keywords: *national games, friendship, “First Step” educational program, “Reconciler”, “Numbers”.*

When we think of nationality, first of all, memories of the past come to our eyes. Because nationality reflects the past, traditions, and values of each nation. Nationality means a person's sense of identity. Every nation has a history of origin, of course. During this history, the traditions followed by the people, the various holidays they celebrated, the national costumes worn on these holidays, the dances performed, the games played between people to make the holidays interesting and entertaining are elements that reflect nationalism Every nation on earth is known by its national image, it is distinguished from others. That is, it can be confidently said that each of the elements listed above is a separate line of that image.

The Uzbek people stand out among the nations of the world with their unique nationality. In this article, we will focus on the issue of forming feelings of friendship in our children by means of national games, and we will think about the importance of nationalism in this.

National games consist mainly of action games, and in many cases they are called "national action games". Young and old alike have been engaged in national action games since ancient times. National games were the basis of children's activities, while adults warmed up the circle with various games that bring pleasure to people. Of course, even in today's high-tech era, spring holidays cannot be imagined without national entertainment. Because such national games make adults, first of all, have childish fun and get rid of their worries, get a little distracted from life's worries, meet friends, in short, help them feel the true holiday spirit. will give.

References:

1. Hasanboyeva, O.U., Tojiyeva, M.X., Toshpo'latova, Sh.K. et.al. (2012). *Maktabgacha ta'lim pedagogikasi* [Pedagogy of preschool education]. Tashkent: Ilm ziyo.

2. Grosheva, I.V., Mirziyoyeva, Sh.Sh. et. al. (2022). *Ozbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim tashkilotlari uchun "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi* [State curriculum "First Step" for preschool educational organizations of the Republic of Uzbekistan]. Improved second edition. Tashkent.

3. Rahimqulov, K. (2012). *Milliy harakatli o'yinlar* [National Action Games]. Tashkent: Tafakkur bo'stoni.

4. Qurbonova, M.A., Qosimova M.U. (2009) *Milliy harakatli o'yinlar* [National Action Games]. Tashkent: O'zDJTI nashriyot bo'limi.

5. Sodiqova, Sh. (2013). *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent: Tafakkur bo'stoni.

6. Mirzayeva, D. (2022). *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent.

7. Kayumova, N. (2013). *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent.

8. Qodirova, F.R. Toshpo'latova, Sh.Q. et. al. (2019). *Maktabgacha pedagogika* [Preschool Pedagogy]. Tashkent: Tafakkur.

9. Usmanxodjayev, T.S., Isroilov, Sh.X. et. al. (2015). *Milliy va harakatli o'yinlar* [National and action games]. Tashkent: Moliya-iqtisod.

10. Usmanxodjayev, T.S. Pulatov, L.L. et. al. (2018). Milliy va harakatli o'yinlar [National and action games]. Tashkent: Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

.

Muallif haqida ma'lumot:

QURONOVA Ismigul Xolmurod qizi – Andijon davlat universiteti Pedagogika kafedrasi tayanch doktoranti. E-mail: ismigulkuranova@gmail.com